

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR - MAKON VA ZAMON KATEGORIYALARINING AKTUALIZATORLARI SIFATIDA (Balzak asarlari misolida)

*Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti
Haydarova Bahora Asliddin qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti magistri*

Annotatsiya: This article examines the role of phraseological units in expressing space and time in Balzac's works. Phraseological units enhance imagery, create aesthetic impact, and bring vitality to speech. Through these expressions, the dynamics of time, social stratification, and historical context are effectively conveyed. This article analyzes the linguopoetic functions of phraseological units in Balzac's works, highlighting their role in character depiction, artistic expression, and overall influence on the literary text.

Keywords: *phraseological units, Balzac, linguopoetic analysis, expression of space and time, stylistic functions, esthetic expression, imagery, emotional impact.*

Adabiy matnda makon va zamon tasviri muhim o'rin tutadi. Ushbu tasvir uslubi asarning badiiy qiymati va obrazlar tizimini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Fransuz realizmining yirik vakili Onore de Balzak o'z asarlarida makon va zamonni tasvirlashda frazeologik birliklardan keng foydalangan. Balzak asarlarida makon va zamon tasviri o'ziga xos uslubda aks etadi. U frazeologik birliklar yordamida yanada jonli va estetik ifodalangan [1,34]. Ularning lingvopoetik xususiyatlari adib uslubining o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lib, tasviriylkni oshirish, xarakterlarni individuallashtirish va tarixiy davr ruhini aks ettirish kabi vazifalarni bajaradi.

Frazeologik birliklar matnning ekspressivligini oshirish, nutqni tabiiy va jonli qilish bilan birga, muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstni yaratishga xizmat qiladi. Ular tasviriyl imkoniyatlarni kengaytiradi va badiiy dunyoni yaratishda muhim rol o'ynaydi [2, 56]. Balzakning "Insoniyat komediyasi" turkumiga kiruvchi asarlarida makon va zamon tasvirida frazeologizmlar muhim lingvopoetik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada Balzak asarlarida frazeologik birliklarning lingvopoetik funksiyalari, ularning makon va zamonni ifodalashdagi ahamiyati hamda badiiy matnga ta'sir kuchi tahlil qilinadi.

Frazeologik birliklar badiiy nutqda obrazlilik yaratishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular ma'noni kuchaytirish, emotsional va ekspressiv bo'yoqlarni oshirish uchun qo'llaniladi [3, 78]. Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Obrazli ma'no yaratish – frazeologizmlar badiiy matnga chuqur ma'no yuklab, voqealar va personajlarni yanada aniqroq tasvirlash imkonini beradi.
- Emotsional va ekspressiv bo'yoqlarni kuchaytirish – matnga hissiy rang-baranglik bag'ishlab, o'quvchining qabul qilish jarayoniga ta'sir qiladi.

Frazeologizmlar badiiy matnda nafaqat semantik yuk tashuvchi birliklar, balki muhim poetik vositalar ham hisoblanadi:

- Makon va zamonning estetik tasvirini yaratish – frazeologizmlar yordamida Balzak asarlarida shahar, ijtimoiy muhit va tarixiy kontekstni jonli va realistlik aks ettirishga erishiladi.
- Obrazlar nutqini jonlantirish va uslubiy rang-baranglikni oshirish – qahramonlarning nutqiga tabiiylik bag'ishlash, ularning ijtimoiy mavqei va shaxsiy xususiyatlarini ifodalash imkonini beradi.

Frazeologik birliklarning estetik xususiyatlari adabiy matnning badiiy ta'sirini oshirishda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi:

- Obrazlarni jonlantirish va voqealarni yorqinroq tasvirlash – frazeologizmlar sahnalar va personajlarni o'quvchi tasavvurida yanada jonli va yaqqol aks ettirishga yordam beradi.

- O'quvchida kuchli emotsional ta'sir uyg'otish – matndagi dramatik, yumoristik yoki tragik holatlarni kuchaytirish orqali o'quvchining asarga bo'lgan hissiy munosabatini oshiradi.

Frazeologizmlar badiiy matnda muallif uslubining shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi:

- Muallif uslubining o'ziga xosligini namoyon etish – frazeologik birliklardan foydalanish Balzak uslubining o'ziga xos jihatlari ochib beradi.

- Xarakterlarning nutqini individuallashtirish va tabiiyroq qilish – qahramonlarning nutqidagi frazeologizmlar ularning shaxsiyati, ijtimoiy mavqei va psixologik holatini aks ettirishga yordam beradi.

Balzak asarlarida makonning tasviri frazeologik birliklar orqali yanada jonli va aniq ifodalanadi. Ayniqsa, Parij shahri va uning turli hududlari frazeologizmlar yordamida ijtimoiy va madaniy kontekst bilan bog'lanadi. Balzak asarlarida Parijning aristokratik, burjuaziyaga mansub va kambag'allar yashaydigan hududlari turlicha tasvirlanadi. Frazeologizmlar shahar geografiyasini aks ettirish bilan birga, undagi ijtimoiy tafovutlarni ham ochib beradi. Quyida makonni ifodalovchi bir nechta frazeologik birliklarni ko'rib chiqaylik:

“*Au fond*” (tubida, ichkarisida) (PG.3) “*La pension Vauquer est une maison grise, située au fond du faubourg Saint-Marceau.*” Bu ibora makonni ifodalaydi va uni Parijning unutilgan, qashshoq qismi sifatida tasvirlaydi. Balzak bu orqali shahar ijtimoiy qatlamlarini aniq aks ettirib, realistik tasvir yaratadi. “*Au fond*” (tubida, ichkarisida) iborasi chetga surilgan, jamiyat e'tiboridan chetda qolgan joyni tasvirlash uchun ishlatilgan. Ba'zi o'rinlarda frazeologik birliklar yuqori jamiyat vakillari va oddiy xalq orasidagi tafovutni yanada yaqqol ko'rsatish uchun qo'llanadi.

“*Les bas-fonds*” (past qatlamlar, tub joylar) (PG.102) “*Il descendit dans les bas-fonds de Paris, où la misère régnait en maîtresse.*” Bu frazeologik birlik Parijning eng qashshoq, jinoyatchilik avj olgan joylarini tasvirlaydi. “*Bas-fonds*” (past qatlamlar, tub joylar) iborasi orqali ijtimoiy tublik va mahrumlik obrazini kuchaytiradi.

“*Au cœur de*” (markazida, yuragida) (PG.26) “*Rastignac aspirait à une vie meilleure, au cœur de Paris, là où la richesse brillait.*” “*Au cœur de Paris*” iborasi shahar markazining jozibador, obro'li qismi haqida gapiradi. Balzak ijtimoiy tabaqalanish kontrastini ko'rsatish uchun bu iborani ishlatgan.

Frazeologik birliklar vaqtning qanday kechayotganini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Zamon dinamikasini ifodalovchi va tarixiy jarayonlarning kechishini ifodalovchi iboralar Balzak asarlarida keng qo'llaniladi.

Zamonga oid frazeologik birliklarga misollar:

“*De bonne heure*” (erta tongda) (PG.12) “*Le lendemain, de bonne heure, dans le brouillard du matin, il sortit de la maison Vauquer.*” Bu frazeologik birlik ertalabki vaqtni tasvirlash bilan birga, obrazga noaniqlik, sirli muhit bag'ishlaydi. Parijning tuman bilan qoplangan manzarasi qahramonning ruhiy holati bilan uyg'unlashib, uning hayotdagi yo'nalishsizligi va adashganligini ta'kidlaydi.

“*Au clair de la lune*” (oy nuri ostida) (PG.85) “*Ils marchaient au clair de la lune, dans une rue silencieuse.*” Bu frazeologik birlik kechki vaqt tasvirini kuchaytiradi va romantik, sirli muhit yaratadi. Oy nuri ko'pincha noaniqlik, kutilmagan voqealar, hatto fojiali lahzalar bilan bog'lanadi. Balzak ushbu tasvir bilan sahnaning estetik ta'sirini kuchaytirgan.

“*À la tombée de la nuit*” (tungi zulmatda) (PG.67) “*À la tombée de la nuit, la ville changeait de visage.*” Bu ibora kunning o'tish jarayonini ifodalaydi. Kech kirishi bilan Parijning ijtimoiy hayoti, kayfiyati o'zgarishi tasvirlanadi, bu esa voqealarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

“*À l'aube*” (tongda) (PG.14) “*À l'aube, il sortit en hâte, décidé à changer son destin.*” Bu ibora tong vaqtini tasvirlaydi va qahramonning yangi umid yoki o'zgarish sari intilishini bildiradi. Aube (tong) yangi boshlanish ramzi sifatida ishlatilgan.

“*Vers minuit*” (yarim tunga yaqin) (PG.112) “*Vers minuit, il rentra chez lui, épuisé par la fatigue et les émotions.*” Bu ibora tungi vaqtni ko'rsatib, qahramonning charchoq va ichki ziddiyatlari bilan bog'langan va o'z navbatida qahramonning holatini hamda charchoqni ifoda etishda bu vaqt ko'rsatkichi o'quvchiga yanada aniq tasavvur beradi.

“*En pleine nuit*” (tun o'rtasida) (PG.76) “*En pleine nuit, des bruits étranges résonnaient dans la pension.*” Bu ibora sirli, xavotirli va noaniq muhit yaratish uchun ishlatilgan. Tungi vaqt Balzak asarlarida fojiali yoki muhim burilish nuqtalarining ramzi bo'lib kelgan.

“*Au coucher du soleil*” (quyosh botayotgan paytda) (PG.58) “*Au coucher du soleil, il s'arrêta un instant pour contempler la ville.*” Bu ibora kunning oxirgi soatlari bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha xotirjamlik, mulohaza yoki nostalgiyani ifodalaydi.

“*Dès l'aube*” (tong otishi bilan) (PG.31) “*Dès l'aube, il partit sans se retourner.*” Bu ibora qahramonning shoshilinch harakatini va ertalab sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tasvirlash uchun ishlatilgan va keskinligini ta'kidlaydi.

Balzak asarlarida frazeologik birliklar makon va zamonning lingvopoetik tasvirini boyitishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki Balzak frazeologizmlar orqali geografik joylashuvni, ijtimoiy tabaqalanishni va tarixiy kontekstni yanada jonli va aniq tasvirlaydi. Ular tasviriy obrazlarni jonlantiradi va emotsional ta'sirni oshiradi – frazeologizmlar qahramonlarning xarakterini chuqurroq ochib berish, voqealarni yorqinroq tasvirlash hamda o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatishda katta ahamiyatga ega.

Balzak asarlarida frazeologik birliklarning lingvopoetik tahlili adabiyotshunoslik va tilshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklarning lingvopoetik tahlili yozuvchining badiiy uslubini va uning obraz yaratish mahoratini yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi.

Balzakning “*Le Père Goriot*” asarida makon va zamon ifoda vositalaridan biri sifatida frazeologik birliklar muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat hodisalar sodir bo'layotgan joy va vaqtni aniq belgilab beradi, balki badiiy obraz yaratish, qahramonlarning ruhiy holatini yoritish va voqealarning umumiy kayfiyatini shakllantirish kabi lingvopoetik vazifalarni ham bajaradi.

Makonga oid frazeologik birliklar, masalan, “*au fond*”, “*dans les bas-fonds*”, asardagi ijtimoiy tabaqalanish va qahramonlarning jamiyatdagi o'rnini yoritishga xizmat qiladi. Balzak bu birliklar orqali Parijning murakkab ijtimoiy tuzilmasini aks ettirib, kambag'allik va boylik, tubanlik va yuksaklik o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytiradi.

Zamonga oid frazeologik birliklar, jumladan, “*à l'aube*”, “*vers minuit*”, “*en pleine nuit*”, “*au coucher du soleil*” esa voqealarning dinamikasini, dramatik kuchini oshiradi. Ayniqsa, tun bilan bog'liq iboralar sirli, xavotirli yoki fojiali voqealarning boshlanishi sifatida tasvirlangan. Tong va quyosh botishi esa umid, o'zgarish yoki ichki mulohazalar bilan bog'liq bo'lib, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalaydi.

Umuman olganda, Balzak frazeologik birliklardan nafaqat realistik muhit yaratish, balki badiiy tasvir kuchini oshirish, voqealar rivojini chuqurroq yoritish va qahramonlarning ichki dunyosini ochib berish uchun foydalanadi. Bu birliklar asarning lingvopoetik tuzilishiga boylik bag'ishlab, Balzak uslubining badiiy-estetik qiymatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Morel, A. Balzac et la langue littéraire. – Paris: Presses Universitaires de France, 1995. – B. 45-67.
2. Федоров, А. В. Лингвопозитика и стилистика художественного текста. – Москва: Наука, 1983. – С. 120-138.
3. Mamatov A. Frazeologiya va badiiy nutq poetikasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2017. – B. 55-72.

4. Лотман, Ю. М. Анализ поэтического текста. – Ленинград: Просвещение, 1972. – С. 98-114.
5. Demezson, A. Balzac: Style et Langage. – Paris: Larousse, 1999. – В. 87-102.
6. Ashurov, S., & Suvonova, N. (2023). Humorous phraseologisms-as a tool of funny assessment of real events (in French material). In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 10024). EDP Sciences
7. Сувонова Н.Н., Алиева Г.Т. National features of transliting uzbek folk proverbs into french//Иностранные языки в Узбекистане, -2020. Р.- 183-19
8. Сувонова Н. Некоторые соображения о феномене редупликации во французской фразеологии // Иностранная филология: язык, литература, образование, -2020. - С.23-28.
9. PG. -Balzac, H. de. Le père Goriot. –Paris: GALLIMARD, 1999.-436 p.
10. Khayrullaev, K. Z. (2001). The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness. Abstract of candidate dissertation.–Tashkent.
11. Хайруллаев, Х. (2002). Предикативлик ходисаси ва унинг ифода объектлари.
12. Хайруллаев, Х. (2009). О лингвистической природе уровней языка и речи. Вопросы филологических наук, (2), 78-79.